



АКТУАР МОЛИЯ ВА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

Vol. 4 Issue 01 | pp. 101-106 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

О'ЗБЕКISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI



Usmanova Gulida Valiyevna

Namangan davlat universiteti Menejment kafedrası o'qituvchisi

Email: bibisoraozodbek@gmail.com

Аннотасија: Mazkur maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni, yangi ish o'rinlari yaratish va daromadlarni oshirish tizimini, kichik biznesni rivojlantirishni, YIMni va kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishini iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada mustahkamlanayotganini ko'rishimiz mumkin.

Калит so'zlar: kichik biznes, iqtisodiy o'sish, YaIM, soliq imtiyozlari, biznes xarajatlari, dastur chora-tadbirlari.

РАЗВИТИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Усманова Гулида Валиевна

Преподаватель кафедры менеджмента

Наманганского государственного университета

Email: bibisoraozodbek@gmail.com

Аннотация: В данной статье мы можем увидеть реализуемые в Узбекистане экономические реформы, систему создания новых рабочих мест и увеличения доходов, развитие малого бизнеса, МДИ, а также развитие малого бизнеса и предпринимательства, роль которого значительно усиливается в экономике.

Ключевые слова: малый бизнес, экономический рост, ВВП, налоговые льготы, расходы бизнеса, программные меры.

DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN

Usmanova Gulida Valiyevna

Teacher of the Department of Management of Namangan State University

Email: bibisoraozodbek@gmail.com

Abstract: In this article, we can see the economic reforms implemented in Uzbekistan, the system of creating new jobs and increasing incomes, the development of small business, MDI, and the development of small business and entrepreneurship, the role of which is significantly strengthened in the economy.

Keywords: small business, economic growth, GDP, tax credits, business expenses, program measures.

1. Kirish

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishdir. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va chora-tadbirlari" [1] asarida shunday ta'kidlagan edi: "Men yana bir bor e'tiborni kichik biznesning harakatchanligi, uning o'z biznesini rivojlantirish qobiliyatiga qaratmoqchiman. bozor kon'yunkturasi va iste'molchilar talablari o'zgarishiga nisbatan oson moslashib, uni jahon iqtisodiy inqirozi davrida yangi ish o'rinlari yaratish va daromadlarni oshirish uchun ajralmas vositaga aylantiradi".

Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oldini olish va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, jadal iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, bandlik muammosini hal etish, ayniqsa, kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. aholi daromadlari va farovonligini oshirishda muhim o'rin tutayotgan tadbirkorlik subyektlari va xususiy tadbirkorlik.

2. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

O'zbekistonda 2022- yilning 1- iyun holatiga jami faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari (*fermer va dehqon xo'jaliklarisiz*) **491 071 ta** bo'lib, shundan kichik tadbirkorlik subyektlari soni **487 101 tani** tashkil etgan.

O'zbekistonda 2023-yilning 1-sentabr holatiga jami faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 414 927 ta (*fermer va dehqon xo'jaliklarisiz*) bo'lib, shundan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 411 306 tani tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni hududlar kesimida quyidagicha belgilangan:

- Toshkent shahrida – 84 199 ta
- Toshkent viloyatida – 38 276 ta
- Samarqand viloyatida – 36 931 ta
- Farg'ona viloyatida – 35 649 ta
- Qashqadaryo viloyatida – 28 929 ta
- Buxoro viloyatida – 26 823 ta
- Andijon viloyatida – 24 149 ta
- Xorazm viloyatida – 23 496 ta
- Namangan viloyatida – 22 992 ta
- Surxondaryo viloyatida – 20 829 ta
- Qoraqalpog'iston R. – 21 125 ta
- Navoiy viloyatida – 19 877 ta
- Jizzax viloyatida – 16 880 ta
- Sirdaryo viloyatida – 11 151 ta

O'zbekistonda 2022yil boshida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlari soni 207,6 mingtani tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 38,7 foizga ko'pdir. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshlanganidan keyin kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan ko'rilyotgan chora-tadbirlar ushbu sohaning yalpi ichki mahsulot tarkibida ulushi muttasil oshib, iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada mustahkamlanayotganidan dalolatdir.

2023 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida kichik biznes sektorining ulushi qariyb 52,8 foizni tashkil etdi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshida bu ko'rsatkich 48,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2023-yilga nisbatan 1,3 foiz punktga oshdi.

Bugungi kunda respublikada 93,9 mingta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 15,9 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 16,9 % i) Toshkent shahriga, 10,1 mingtasi (10,7 %) Farg'ona viloyatiga, 9,6 mingtasi (10,3 %) Toshkent viloyatiga, 9,4 mingtasi (10,1 %) Andijon viloyatiga

va 8,3 mingtasi (8,8 %) Samarqand viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

2023- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 8 639 ta, sanoatda 3 986 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 3 086 ta yangidan tashkil etilgan. Respublikaning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahrining Mirzo-Ulug'bek tumanida 553 ta, Yunusobod tumanida 485 ta hamda Chilonzor tumanida 477 ta yangidan tashkil etilgan.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Statisik ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, keyingi yillarda respublikada sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, aholiga pullik xizmat ko'rsatish, mahsulot eksporti kabi sohalardagi kichik korxonalar salmog'i jadal sur'atlar bilan o'sdi. Bunday o'sish shu bilan izohlanadiki, bu hududlarda kichik korxonalar bozor sharoitlari bilan bog'liq o'zgarishlarni o'zida mujassam etadi, ya'ni ular iste'molchilarning o'zgaruvchan talablariga tez moslashadi.

3. Tadqiqot metodologiyasi

O'zbekistonda kichik biznesning rivojlanishi o'rta mulkdorlar sinfining paydo bo'lishiga olib keldi, bu esa barqaror biznesni kengaytirishga xizmat qildi.

Kichik biznesning asosiy xususiyatlaridan biri mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo'ladigan asosiy ko'rsatkichlarni qisqa muddat ichida ta'minlab berishi bilan ajralib turadi. Ya'ni kichik biznes mamlakat ichki bozorida taqchil bo'lgan tovar va xizmatlar bilan to'ldiradigan, iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim soha hisoblanadi. Shuningdek mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun ish bilan bandligini va daromadlarini oshirish hamda mulkdorlar sinfini shakllantirishda eng asosiy omil va manba bo'lib xizmat qiladi. Umuman kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati:

- mamlakat yalpi milliy mahsulotining tarkib va miqdor jihatdan ko'payishini ta'minlaydi;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun zamin yaratib beradi;

- aholining joriy daromadlari va jamg'armalarining oshishiga hamda farovonlik darajasini ko'tarilishiga zamin yaratadi; sohaviy va mintaqaviy yakka hokimlikni bartaraf etishi;
- davlat byudjet mablag'larining bir me'yorda bo'lishini ta'minlaydi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatda faol eshtirok etadi;
- resurslardan oqilona foydalanish;
- yangi texnika-texnologiya, asbob-uskunalarni ishlab chiqarishga joriy etish va mehnat unumdorligini oshiradi.

4. Tahlil va natijalar

Shuning uchun ham jahonning barcha mamlakatlarida kichik biznes milliy iqtisodiyotining poydevori hisoblanadi.

Kichik biznes mamlakatning iqtisodiy salohiyatini ko'tarishi, davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi va gullab-yashnashining o'lchovi bo'lganligi uchun O'zbekistonda ham kichik biznesning rivojlanishini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Respublikamizda kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunning asosiy ustivor vazifasidir.

Kichik biznesga bo'lgan e'tiborning iqtisodiy sabablari:

- ichki bozorni mahalliy tovar va xizmatlar bilan to'ldirish;
- aholining harid qobiliyatini oshirish;
- mamlakatning eksport salohiyatini yuksaltirish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish;
- servis xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish;
- yirik korxonalarni butlovchi detallar va qismlar bilan ta'minlash;
- raqobat muhitini vujudga keltirish;
- mamlakat ichida kapitalning aylanuvchanligini ta'minlash kabilar.

Haqiqatdan ham kichik biznes sub'ektlari ichki bozorni mahalliy tovar va xizmatlar bilan to'ldirayotgan, yirik korxonalarni butlovchi detallar va qismlar bilan ta'minlayotgan va mamlakat eksport salohiyatini oshirayotgan sohaga aylanib bormoqda. Buni mamlakat eksport salohiyatidagi o'rnini oshib borayotganidan ham ko'rish mumkin. Kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'rnini ham asta-sekin kengayib bormoqda. Uning eksport hajmidagi ulushi 2021 yilda 22,3 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023 yilda 145,1% ga oshganligini ko'rishimiz mumkin,

Har qanday davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatida eksport muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining ravnaqi eksport salohiyatining yuksalishiga ham bevosita bog'liqdir. Mustaqillik yillarida mamlakatimizning eksport salohiyati tubdan o'zgardi. Bunda kichik biznesning o'rnini ham beqiyosdir. Kichik biznes sub'ektlari bugungi kunda ichki iste'mol bozorini import o'rnini bosuvchi tovarlar bilan to'ldiribgina qolmay, balki yuqori sifatli, raqobatbardosh tovarlarni jahon bozoriga taklif etmoqda. Kichik biznes mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida ham eng muhim sohaga aylanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, ovqatlanish, mehmonxona va turizm faoliyatlarida kichik biznesning salmog'i juda kattadir. Keyingi paytlarda sanoatda tarmoqlarida modernizatsiya, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan o'zgartirish, sanoatda chuqur tarkibiy o'zgartirishlar va diversifikatsiyani amalga oshirilishi natijasida

qishloq joylarda ham sanoat tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Bunda esa kichik biznes asosiy yetkachilardan hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarishda ham kichik biznesning ulushi yildan-yilga oshib bormoqda.

Kichik biznesni sanoat tarmoqlaridan oziq-ovqat sanoatida, qayta ishlash sanoati, yengil sanoatda ulushi yuqori bo'lmoqda. Asta sekinlik bilan kichik biznes sub'ektlari sanoatning boshqa muhim tarmoqlariga ham faoliyati oshishib bormoqda. Kichik biznesni rivojlantirishdan yana bir maqsad mamlakatning ma'naviytarbiyaviy va madaniy ishlarini yuksaltirish. Chunki kichik biznes ma'naviytarbiyaviy va madaniy sohalarini rivojlanishiga ham o'z hissasini qo'shadi. Respublikamizda kichik biznesni rivojlantirishning ma'naviy-tarbiyaviy va madaniy sabablari:

- an'anaviy xalq amaliy san'ati va badiiy hunarmandchilikning tiklanishiga ko'maklashish; sport va sog'lomlashtirish maskanlarini barpo etish;
- xususiy o'quv muassasalarini ochish;
- obodonlashtirish, ko'rkamlashtirish va ekologik tarbiyani yo'lga qo'yish;
- bolalar, o'smirlar hamda yoshlar lagerlarini tashkil qilish.

Keyingi 3-4 yil ichida mamlakat iqtisodiyotida davlat ulushini qisqarishi, erkin bozoro mexanizmlarini amal qilishi natijasida kichik biznesning rivojlanishida tub bo'rilish bo'ldi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi ham oshib bormoqda. Ayniqsa, kichik va xususiy korxonalarining ishlab chiqarish tarmoqlaridagi hissasi ortib bormoqda. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkin, milliy iqtisodiyotida kichik va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish kambag'allikni qisqartirish, o'zini-o'zi ish bilan bandligini ta'minlash, mahallalarda xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish kabilarga erishishni ta'minlaydi. Mahaliy Institutlarning samaradorligi rolini oshirish – tadbirkorlarga yangi korxonalar yaratish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni taqdim etishi, shuningdek, uning keyingi faoliyati va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishga inkoniyat beriishi lozim.

5. Xulosa

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun dastavval tadbirkorlik subyektlarini aniq moliyalashtirish manbalarini, shu jumladan aholi mablag'lari, byudjetdan tashqari jamg'armalar, tadbirkorlar, tijorat banklari va moliya institutlarining kreditlari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning grantlari, xalqaro standartlarga muvofiq kredit uyushmalari faoliyatini yo'lga qo'yish.

2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlar o'z ehtiyojlari uchun ob'ektlar quradigan yangi tashkil etilgan kichik biznes sub'ektlariga yagona soliq to'lovi to'lash bo'yicha imtiyozlar yaratish.

3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan yirik korxonalar o'rtasida ilmiy-texnika sohasida kooperasiyasini yo'lga qo'yish. Yirik korxonalarining buxgalteriya, marketing kabi xizmatlarini autsorsing asosida tashkil etish mexanizmlari bo'yicha huquqiy asoslarni mustahkamlash.

4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning davlat xaridlarida ishtirokini oshirish, tadbirkorlik sub'yektlarining davlat xaridlari sohasida yanada soddalashtirish deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni//
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 yanvardagi "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperasiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-99-son Qarori//
3. Nikki LaMarko.<https://smallbusiness.chron.com/problems-smallscalebusinesses-12355.html>
4. Jay Conrad Levinson, Paul R. J. Hanley. The Guerrilla Marketing Revolution: Precision Persuasion of the Unconscious Mind. — Piatkus Books, 2005. — 192 p. — ISBN 978-0749926113.
5. Kotler, P. (1998) Marketing Management: Analysis, Planning, Implementation, and Control. 9th Edition, Prentice Hall, Upper Saddle River. 6. Kholmamatov Diyor Haqberdievich, Boyjigitov Sanjarbek Komiljon ugli. Marketing Problems In The Development Of Export Activities Of Small Business Entities. International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS), 31- 39 pp, 2020
6. O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi. www.stat.uz.
7. Kholmamatov Diyor Haqberdievich. Develop Criteria for Selecting Distribution Channels in Small Business. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 134-145 pp, 2022
8. Kholmamatov Diyor Haqberdievich. Promote Upgrade After-Sales Service Strategic Skills. Indonesian Journal of Law and Economics Review, 2019
9. Kholmamatov Diyor Haqberdievich. Development of Customer Service Delivery System in Wholesale Trade. Indonesian Journal of Law and Economics Review, 2019

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

